




«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI»
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



**MAVZU:»TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI
INSTITUTI» MTU TARIXI**





Reja

1. Institutning tashkil qilinish tarixi.
2. Institutning strukturasi.
3. Institutda faoliyat ko'rsatayotgan fakultetlar

”Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”-MTU

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 1923 yilda Turkiston Davlat Universiteti Texnika fakultetining Gidrotexnika bo‘limi Melioratsiya muxandisligi fakultetining tuzilishidan boshlangan. 1923 yilda 24 nafar talaba agranom, 16 nafar talaba gidromelioratsiya muhandisi sifatida institutni tamomlab birinchi bitiruvchilari bo‘lishgan. 1929 yili Melioratsiya muhandisligi fakulteti negizida mehanika qurilishi va suv ho‘jaligi fakultetlari ochilib O‘rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya politehnika instituti tashkil etildi. Institutni tashkil etilishi Respublikaning qishloq va suv ho‘jaliklari hodimlariga bo‘lgan kuchli ehtiyojni qondira boshlagan. Shu vaqtlarda o‘rta osiyo respublikalarida yer suv islohotining amalga oshirilishi hamda irrigatsiya va qishloq ho‘jaligini mehanizatsiyalashtirishning yanada rivojlantirilishi yahlit oliy texnika o‘quv mehanizatsiyasining tashkil etilishini taqazo qilgan.

1934 yilda oʻrta osiyo irrigatsiya muhandislari va texniklari instituti oʻrta osiyo qishloq hoʻjaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti nomi bilan birlashtirilib shu yilning 11 noyabiridan Toshkent irrigatsiya va qishloq hoʻjaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari institutiga aylantirilgan. Dastlab uning tarkibida ikkita gidromelioratsiya va mexanizatsiya fakultetlari boʻlgan. Ulugʻ vatan urishidan keyingi davrda mamlakatning qishloq hoʻjaligi iqtisodiyotida yuksalish roʻy berdi, yangi tarmoqlar ochila boshladi. Institutda esa yer qurilishi 1945 yilda, gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish 1946 yilda, gidroyenergetika qurilishi 1946 yilda, qishloq hoʻjaligi mashinalarini tamirlash texnologiyasi va uni tashkil etish 1974 yilda, umummuhandislik 1979 yilda fakultetlarini ochilishi Oʻzbekistonda iqtisodiy ishtimoiy oʻsish bilan chambarchas bogʻliq.

1923 yildan buyon TIQXMMI davlat tashkilotlari, muassasalari hamda korxonalari uchun 52000 dan ortiq suv va qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislar, akademiklar, ilmiy izlanuvchilar va boshqaruvchilarni tayyorlab kelmoqda. Uning ilmiy salohiyati dunyo bo'ylab 28 ta mamlakatdan taxminan 3000 ga yaqin bitiruvchilarda aks etadi. TIQXMMI olimlari o'zlarining yuqori darajadagi ilmiy tadqiqot ishlari, suv resurslarini tejash, irrigatsiya va oqova suvlarni qayta ishlash texnologiyalari bo'yicha dunyo e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda institutda jami 35 ta kafedraga ega bo'lgan 7 ta (Gidromelioratsiya, Hidrotexnika qurilishi, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, Gidromeliortiv ishlarni mexanizatsiyalash, Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti, Yer resurslarini boshqarish hamda Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish) fakultetlari mavjud.

1923

-YILDA

Turkiston davlat universitetining Hidrotexnika bo'limida Muhandislik melioratsiyasi fakultetining tashkil etilishi bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining tarixi boshlanadi

2004

-YILDA

2004 yil 30 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 150-sonli qarori bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutiga aylantirilgan.



1934

-YILDA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti tashkil etilib, dastlab uning tarkibida Hidromelioratsiya, Mexanizatsiya fakultetlari faoliyat ko'rsatgan

2017

-YILDA

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3003-sonli qaroriga binoan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga aylantirildi.

**2021
yilda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-42 sonli Qaroriga asosan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universitetiga aylantirildi

«Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash» fakulteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3003-sonli qarorida tasdiqlangan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tarkibiy tuzilmasiga asosan sobiq “Suv xo‘jaligini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash” fakulteti negizida tashkil etildi. “Qurilish ishlarini mexanizatsiyalash” ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash dastlab 1946 yilda “Gidromelioratsiya” fakulteti tarkibida boshlangan. 1950 yili «Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash» fakulteti, 1991 yildan “Irrigatsiya injenerlari tayyorlash o‘quv-ilmiy markazi” tashkil etilgan. 1996 yildan Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar “Gidromelioratsiya” fakultetida, 2001-2004 yillarda esa «Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash» fakultetida va 2004-2017 yillar «Suv xo‘jaligini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash» fakultetida tayyorlangan. Bugungi kunda fakultetda 2 ta mutaxassis chiqaruvchi, 1 ta umumtexnik fanlar va 1 ta ijtimoiy fanlar kafedralari mavjud bo‘lib, suv xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlab kelmoqda. Fakultet jamoasi qishloq va suv xo‘jaligida zamonaviy, resurstejamkor texnologiyalar ishlab chiqish, mashina va mexanizmlarni keng qo‘llash va joriy etish, gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalashtirish sohasida mashina va mexanizmlarni texnik darajasini oshirish, ularni takomillashtirish, foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash texnologik jarayonlarini modernizatsiyalash yo‘nalishida ilmiy – tadqiqot ishlari olib bormoqda.

KAFEDRALAR:

- 1.Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash;
- 2.Hayot faoliyati xavfsizligi;
- 3.Gumanitar fanlar.



MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI:
Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish.

BAKALAVRIATURA YO‘NALISHLARI:

Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish;
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.



KAFEDRALAR:

1. Hidravlika va gidroinformatika;
2. Hidrologiya va gidrogeologiya;
3. Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish;
4. Irrigatsiya va melioratsiya;
5. Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash;
6. Fizika va kimyo;
7. Hayot faoliyati xavfsizligi
8. Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi, jismoniy tarbiya va sport.;

“Gidromelioratsiya” fakulteti 1923 yilda Turkiston Davlat universite- tining “Texnika” fakulteti tarkibida “Melioratsiya muhandisligi” yo‘nalishi bo‘yicha soha kadrlarini tayyorlash maqsadi- da tashkil etilgan. Fakultet tashkil etilgan ilk davrlarda 49 nafar professor- o‘qituvchilar 274 talabalarga melioratsiya muhandisligi bo‘yicha bilim bera boshlagan. Keyinchalik, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olib 1934 yil 16 noyabrda “Gidromelioratsiya” va “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish” fakultetlaridan tashkil topgan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti tashkil etilgan.

BAKALAVRIATURA YO‘NALISHLARI:

1. Suv xo‘jaligi va melioratsiya;
2. Suv xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish;
3. Suv ta‘minoti muhandislik tizimlari;
4. Daryo va suv omborlari gidrologiyasi;

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGLARI:

1. Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik;
2. Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish;
3. Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari;
4. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va boshqarish.

DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARI:

1. Hidravlika va muhandislik gidrologiyasi;
2. Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik;
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
4. Kasb-hunar ta‘limi nazariyasi va metodikasi

GIDROTEXNIKA QURILISHI FAKULTETI

Institut tarkibida 1946 yilda «Kichik va oʻrta gidroelektrostansiyalarni qurish» fakulteti tashkil etilgan va keyinchalik «Gidrotexnika qurilishi», «Daryodagi gidrotexnika inshootlari va GES qurilishi» fakulteti nomlari bilan faoliyat yuritgan. Insti- tutning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan oʻzgarti- rishlarga mos holda 1991 yildan «Irrigatsiya injenerlarini tayyorlash oʻquv-ilmiiy markazi»da va 1996 yildan «Gidromelioratsiya» fakulteti tarkibida «Suv xoʻjaligi qurilishi» mutaxassisligi boʻyicha kadrlar tayyorlangan. 2004 yildan fakultet «Irrigatsiya gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish» nomi bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 noyabrdagi «Qishloq va suv xoʻjaligi tarmoqlarini oliy maʼlumotli yuqori malakali kadrlar bilan taʼminlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 311-sonli qaroriga asosan fakultet «Gidro- texnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish» nomi bilan faoliyat yuritgan



KAFEDRALAR:

Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyalari;
Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish;
Nazariy va qurilish mexanikasi;
Chizmachilik geometriya va muhandislik grafikasi.

BAKALAVRIATURA YOʻNALISHLARI:

Gidrotexnika qurilishi (suv xoʻjaligida);
Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish;
Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika obyektlari;

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish, ularning ishonchliligi va xavfsizligi;
Nasos stansiyalaridan va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi;

DOKTORANTURA IXTISOSLIGI:
Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi.



“Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash”

fakulteti 1920 yilda Turkiston Davlat universiteti 8 fakultetlari qatorida texnik fakultet ham ochilgan.

1930 yili O‘rta Osiyo Davlat universitetining Mashinashunoslik bo‘limi yangi ochilgan O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi institutining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakultetiga aylantirildi.

1931 yili fakultet bazasida O‘rta Osiy qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish instituti tuzilgan. 1934 yili mazkur institut Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari institu- tiga aylantirilgan. Uning tarkibida “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti ham ochilgan. Shu yilning o‘zida fakultetda 401 talaba ta‘lim olgan. Hukumatning 2004 yil 3 sentabrdagi 415 qaroriga asosan fakultet Toshkent davlat agrar universiteti tarkibiga ko‘chirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3003 – sonli qaroriga asosan Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti negizida Toshkent irrigatsi va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhan- dislari instituti tashkil etildi va fakultet 2017 yil 2 sentabrdan TIQXMMI tarkibida faoliyat ko‘rsata boshladi.

KAFEDRALAR:

1. Qishloq xo‘jaligi mashinalari;
2. Traktorlar va avtomobillar;
3. Mashinalardan foydalanish va ta‘mirlash;
4. Umumtexnik fanlar.

BAKALAVRIATURA YO‘NALISHLARI:

1. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish;
2. Qishloq va suv xo‘jaligida texnik servis;
3. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo‘llash.

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI:

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish;

DOKTORANTURA IXTISOSLIGI:

Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari,
qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash.

Institut tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan **“Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish”** fakulteti 1961 yilda tashkil topgan bo'lib, o'z faoliyatini yangi bosqich sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirish va texnolo-gik jarayonlarni avtomatlashtirish yo'nalishida kadrlar tayyorlashdan boshlagan. Fakultet tarkibidan 1978 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini avtomatlashtirish yo'nalishi alohida fakultet sifatida ajralib chiqqan va uch yildan so'ng 1981 yilda qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish fakulteti bo'lib qayta birlashgan. 2004 yil “Qishloq va suv xo'jaligi energetikasi” va “Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” fakultetlari birlashtirilib, “Suv xo'jaligini avtomatlashtirish va mexaniz-atsiyalash” fakulteti tashkil etildi. 2017 yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida “Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish” fakulteti qaytadan tashkil etildi.



KAFEDRALAR:

1. Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan elektr manbalari;
2. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish;
3. Elektrotexnika va mexatronika;
4. Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish.

BAKALAVRIATURA YO'NALISHLARI:

1. Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti;
2. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida).

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

1. Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti;
2. Suv xo'jaligida Smart (intellektual) o'lchash tizimlari va asboblari.

DOKTORANTURA IXTISOSLIGI:

Qishloq xo'jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalari

Fakultet 1945 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti (TIQXMII) tarkibida "Yer tuzish" nomi bilan tashkil etildi.

Fakultet 2018 yil 8 maydan institutning yangi tasdiqlangan tuzilmasiga asosan "Yer resurslarini boshqarish" nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Fakultet respublikada xalq xo'jaligining har xil tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo'yicha taqsimlanishi, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish holatini nazorat qilish va boshqarish hamda ko'chmas mulk obyektlari, ularning huquqiy statusi, davlat ro'yxatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish, kadastr axborot tizimlari, loyiha texnik xujjatlari yuritishni, tabiiy obyektlar, jumladan ulardan foydalanish va holatini nazorat qilish va boshqarish hamda ko'chmas mulk obyektlari, foydalanishini nazorat qilishda geodeziya, kortografiya va kadastr ishlarini yuritish; geoaxborot tizimini yuritishda geodeziya, kartografiya va kadastr ma'lumotlaridan foydalanish sohalarida yetuk kadrlar tayyorlaydi.



KAFEDRALAR:

- 1.Yerdan foydalanish;
- 2.Geodeziya va geoinformatika;
- 3.Tuproqshunoslik va dexqonchilik;
- 4.Davlat kadastr;

BAKALAVRIATURA YO'NALISHLARI:

- 1.Geodeziya va geoinformatika;
- 2.Yer kadastr va yerdan foydalanish;

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

- 1.Geodeziya va geoinformatika;
- 2.Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish.

DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARI:

Yer tuzilishi, kadastr va yer monitoringi Geoinformatika

1974 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'ja-ligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti (TIQXMII)ning "Gidrotexnik inshootlar" fakulteti qoshida "Suv xo'jaligi iqtisodi va uni tashkil etish" yo'nalishi ochildi. Mazkur yo'nalish 1976 yilga kelib mustaqil fakultetga aylandi. Fakultet 2004 yildan "Suv xo'jaligini boshqarish va uning iqtisodiyoti", 2015 yilda "Suv xo'jaligida menejment" nomlari bilan, 2017 yildan "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti nomi bilan ataldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi PQ-3702-sonli "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan, fakultet nomi "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti deb yuritila boshlandi. Bugungi kunda fakulyetda malakali kadrlar tayyorlash, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar asosida o'qitish tizimi sifatli yo'lga qo'yilgan.

KAFEDRALAR:

1. Menejment;
2. Iqtisodiyot;
3. Buxgalteriya hisobi va audit;
4. Iqtisodiy nazariya asoslari;
5. Axborot texnologiyalari;
6. Ingliz tili;

BAKALAVRIATURA YO'NALISHLARI;

1. Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish;
2. Suv xo'jaligida ekologik xavfsizlik;
3. Buxgalteriya hisobi va audit (suv xo'jaligida).

DOKTORANTURA IXTISOSLIGI:

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

1. Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish;
2. Suv xo'jaligida ekologiya xavfsizligi;
3. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va boshqarish.



“TIQXMMI” MTU ILMIY-O‘QUV MARKAZI

TIQXMMI da ta’lim olayotgan talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarish bilan bog‘lagan holda yanada boyitish, ularni davlatimizning yetuk mutaxassislarilib tayyorlash, institutimiz olimlarining ilmiy izlanishlariga sharoit yaratib berish maqsadida 1964 yil 14 iyunda Ilmiy-o‘quv markazi tashkil qilingan.

1967 yili institutimiz olimlari respublikada birinchi bor TIQXMMI ilmiy-o‘quv markazida paxtani ekish sxemasi 60 sm.dan 90 sm.lik sxemaga o‘tishni sinab ko‘rdilar, so‘ng bu sxema butun respublikaga joriy qilindi. Birinchi bo‘lib 90 sm sxemaga chigit ekishni traktorda mexanizator Qozoqboy Aralov bajardi. 1966-67 yillar “Djon-Deyr” rusumli AQSH paxta terish mashinasining O‘zbekiston sharoitida ishlashi va uning gidrotizimlarini sinovdan o‘tkazildi. TIQXMMI o‘quv tajriba xo‘ja-igi nafaqat O‘zbekistonliklar uchun, balki chet elliklar uchun ham tajriba xo‘jaligiga aylandi. Jumladan, 1973 -1976 yillari jo‘xorining sug‘orish rejimlari va texni- kalari bo‘yicha Hindiston davlatidan Arun Kumar Sinxa, sholichilikda sug‘orish rejimini o‘rganish va ishlab chiqish bo‘yicha 1976-1978 yillarda Kuba davlatidan Gasio Syato Oskar Rafael hamda sholini tejamli sug‘orish texnologiyalari, jumladan: suv bostirib, egatlab, yomg‘irlatib sug‘orish bo‘yicha aspirantlar: Vyetnamdan – Nguyen Pixe Kuach, Li Sham, Nguyem Van min; Iroqdan – Abdul Karim Abba, Axmed Xasan hamda Gvineya Bisau (Konekri) Bangladesh kabi davlatlardan kelgan ilm tashnalari tajribalar o‘tkazishib, olgan o‘z nazariy bilimlarini boyit- dilar. Hozir ular o‘z davlatlarining yirik mutaxassislari va davlat arboblari bo‘lib ishlamoqdalar



“TIQXMMI” MTU BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filialini tashkil etish to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 20 avgustdagi 182-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. TIQXMMIning Buxoro filiali qisqa muddatda respublika miqyosidagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalari qatoridan joy olishga ulgurdi. Filial o‘zining dastlabki faoliyatini 210 nafar talaba hamda 38 nafar o‘qituvchi va xodimlar bilan boshlagan bo‘lsa, ayni paytda ta‘limning ikki bosqichida 1500 nafarga yaqin talaba tahsil olib, professor-o‘qituvchilar va xodimlar soni 180 nafarni tashkil etmoqda.



BAKALAVRIATURA YO‘NALISHLARI:

1. Gidromelioratsiya fakulteti talim yo‘nalishlari:
2. Suv xo‘jaligi va melioratsiya;
3. Yer kadastri va yerdan fadalanish;
4. Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish;
5. Gidrotexnika qurilishi (suv xo‘jaligida)

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash fakulteti yo‘nalishlari:

1. Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish;
2. Elektr energetika;
3. Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish;
4. Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti;

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish;
Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash;
Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish.

DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARI:

“Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalarini mexanizatsiyalash”
“Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik”

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari institutining Qarshi filiali Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 maydagi 437-sonli Qaroriga asosan tashkil etildi

Chorvachilik va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti

Gidromelioratsiya fakulteti

Ta'lim turlari:

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni – 11

Sirtqi ta'lim yo'nalishlari soni – 8

Magistratura mutaxassisliklari – 6

Talabalar soni

Bakalavriat – 3138

Magistratura – 66



SINOV (NAZORAT) SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR

- 1. Mustaqillik yillarida ilm-fanni rivojlanishi. nimalardan iborat ?**
- 2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?**
- 3. Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunning asosiy farqlari nimalardan iborat ?**
- 4. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli?**
- 5. Ta'lim yo'nalishida murojaatnomada belgilangan vazifalar nimalardan iborat?**

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev "O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil. "Gazeta.uz".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi "Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ 3702 qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF - 5847-son Farmoni.
www.lex.uz.
4. I.Xudayev va b.Mutaxassislikka kirish. T.2022. «TIQXMMI» MTU bosmaxonasi. 216 b.
5. Т.Асқархўжаев. Ер қазиш ва йўл қурилиш машиналарининг ҳисоби ва назарияси. Тошкент, 2006, 272б.
6. Vafoev S.T., Musurmanov R.K. Qurilish va melioratsiya mashinalarini ishlatish. (O'quv qo'llanma). Toshkent-«Tafakkur bo'stoni» 2015 y, 400 b.
7. Vafoev S.T. Qurilish mashinalari. (Darslik), -T., «TIMI bosmaxonasi»-2014 y, 372 b.
8. Vafoev S.T. Melioratsiya mashinalari. (Darslik), -T., «Fan va texnologiya», 2013.304 b.
- 9.. A.U.Atajanov,I.J.Xudaev. Ekskavator-simulyator o'quv trenajyorni boshqarish. «TIQXMMI bosmaxonasi»-2020 y, 372 b.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



**XUDAEV IBROXIM
JUMAKULOVICH**



**"Gidromeliorativ ishlarni
mexanizatsiyalash"
kafedrası mudiri, t.f.n. dotsent**



+ 998 71 237 1927



ixudaev [@tiiame.uz](mailto:ixudaev@tiiame.uz)